

LINGVOPRAGMATIKA

Abduhalimova Mahbuba Abdumalik qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pragmatika va lingvopragmatikaning tarixi, obyektlari, vazifasi hamda hozirgi tilshunoslikdagi tutgan o‘rni borasida mulohaza yuritilgan. Lingvopragmatika bu til va jamiyat hamda til va shaxs o‘rtasidagi aloqalarni tushunishga yordam beradi. Zamonaviy tilshunoslikda lingvopragmatika juda muhimdir, chunki til birliklarining turli kontekstlarda qanday ta‘sir o‘tkazishi so‘zlovchi va tinglovchi tomonidan qanday qabul qilinishi o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *Pragmatika, lingvopragmatika, olimlar fikri, nutq, muloqot, tilshunoslik, faoliyat.*

LINGUOPRAGMATICS

Abstract: *This article discusses the history, objects, function and role of pragmatics and linguo-pragmatics in modern linguistics. Lingvopragmatics helps to understand the relationship between language and society and between language and person. In modern linguistics, linguo-pragmatics is very important because it studies how language units interact in different contexts and how they are perceived by the speaker and the listener.*

Key words: *Pragmatics, linguo-pragmatics, opinion of scientists, speech, communication, linguistics, activity.*

KIRISH

Inson bor ekan u bilan birga til ham rivojlanib boradi. Til, hayot va inson bir biri bilan uzviy bog‘liqdir. Inson muloqotga ehtiyoj seza boshlagandan til shakllana boshlagan. Til bu - insonlar o‘rtasidagi muloqot vositasi bo‘lib inson o‘z fikrlarini, his-tuyg‘ularini ifodalashda yordam beradi. Til faqat so‘zlashuv

emas balki yozma, imo-ishora, tana harakatlari, intonatsiya kabi turli xil ifoda shakllarida namoyon bo'ladi.

Rus lingvofaylasufi G.V. Kolshanskiy lisonning subyektivligi haqida shunday deydi: "Til alohida shaxsning, insonning butun insoniyatning fikrlash qobiliyati alomatidir va shu sababli o'z tizimi va sturukturasida inson tomonidan olamni o'zlashtirilishining barcha xususiyatlarini, inson amaliy faoliyatining xususiyatlarini ijtimoiy va tabiiy muhit sharoitlarini ifoda etadi... Til obyektiv va subyektivdir, u o'z mohiyati bilan ikki tomonlama substansiya bo'lib, bir paytning o'zida borliqqa va insonga yuzlanadi."

Pragmatika semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o'rganuvchi sohasi; boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini o'zlashtirib, undan foydalanuvchi sub'yektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o'rganuvchi fan tarmog'i. P. haqidagi asosiy g'oya amerikalik olim Ch. Pirs tomonidan o'rtaga tashlangan; yana bir amerikalik olim Ch. Morris ushbu g'oyani rivojlantirgan va "P." terminini semiotika bo'limlaridan birining nomi sifatida amaliyotga kiritgan.

Pragmatika" yunoncha "ish", "harakat" ma'nolarini bildirib, aslida bu tushunchaga nisbatan falsafiy qarash Suqrot davrlaridan ham oldinga borib tarqaladi. Dastlab yunonlar orasida keng tarqalgan bu termin, keyinchalik J.Lokk, E.Kant kabilarning qarashlarida kuzatiladi. XIX-XX asrlarda taraqqiy eta boshlagan pragmatizm g'oyalari 20-30 yillarda barcha til sohalariga keng targ'ib qilina boshlandi. Dastlab, Amerika va Yevropada keng targ'ib qilingan pragmatika rivojida CH.Pirs, R. Karnal, CH. Morris, L.Vitgenshteyn qarashlarini ilgari surildi.

Lingvopragmatika tarixi pragmatika va til madaniyatiga asoslangan boshqa sohalar bilan bog'liqdir. XX asrning ikkinchi yarmida tilshunoslikning pragmatik jihatlari ya'ni til va muloqotning konteksga bog'liq tafsilotlari shakllana boshladi.

Lingvopragmatikaning asosiy maqsadlari madaniy tomonlama ham o'rganilishi mumkin. Masalan turli millatlarda bir xil so'z yoki ibora turlicha ma'noni anglatishi mumkin. Bu yil va madaniyatning o'zaro bog'liqligidan kelib chiqadi.

Nutqiy harakatlar nazariyasi ham bor bunda amaliy ma'nolar tahlil qilinadi. Masalan so'rov, iltimos, rozilik bildirish va ularning madaniy kontekstkarda qanday namoyon bo'lishi o'rganiladi.

Kontekstning ahamiyati bunda oddiy bir so'z turli xil ma'nolarda qo'llanilishi mumkin. Misol uchun "Darsingni qilmaysanmi?" bunda so'rov orqali tinglovchi so'zlovchidan axborot olishni ko'zlamaydi balki bu buyruq ohangida "Darsingni qilgin" degan ma'noda keladi.

Kommunikativ maqsadlariga erishish uchun bunda tilning qanday ishlatilishi tahlil qilinadi. Hurmat va ehtirom ifodalash o'zini kamtarlik bilan ko'rsatish kabi uslublar kommunikativ maqsadga bog'liq.

Lingvopragmatikaning rivojlanishidagi asosiy tarixiy bosqichlar quyidagicha:

1. Pragmatika fanining shakllanishi:
2. Tilshunoslikda pragmatikaning rivojlanishi:
3. Lingvopragmatika sifatida mustaqil yo'nalishning rivojlanishi:
4. Lingvopragmatikaning zamonaviy rivojlanishi:

1. Pragmatika haqida biz quyida keltirib o'tganimizdek, XX asrning boshida pragmatika tushunchasi birinchi bo'lib falsafa va mantiq sohalarida yuzaga keladi. Ch.S. Pirs va J.L. Austin kabi faylasuflar nutq va tilning amaliy jihatlarini o'rgana boshladilar. Ayniqsa, Austinning "Nutq aktlari nazariyasi" va J. Searlning ishlarida til orqali amalga oshiriladigan amaliy harakatlar va ularning kontekstga bog'liq ma'nosi tahlil qilindi.

2. XX asrning 60-70-yillarida lingvistika pragmatikaning asosiy g'oyalari bilan boyidi. Graysning "implicature" va "qoidaviy muloqot" nazariyasi tilni amaliy jihatdan tushunishga yordam berdi. Ushbu davrda pragmatika va tilshunoslikning ko'plab olimlari til va uning kontekstual qirralariga juda katta e'tibor berdilar.

3. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida lingvopragmatika mustaqil yo'nalish sifatida vujudga kela boshladi. Bu yo'nalish til va madaniyatning o'zaro ta'sirini, nutqiy strategiyalarni, kommunikativ maqsadlarni, ijtimoiy va madaniy kontekstga bog'liq jihatlarni o'rgandi. Bu davrda madaniy tillararo farqlar, ko'p

madaniyatli muloqot va kontekstual ma'nolarni tushunish masalalari lingvopragmatikaning markaziy mavzulari bo'ldi.

4. XXI asrda lingvopragmatika ko'plab tillarda muloqot madaniyati va kontekstual ma'nolarni tahlil qilishda o'rnini egalladi. Lingvopragmatik tadqiqotlar nafaqat an'anaviy muloqot tahlili bilan cheklanib qolmay, balki raqamli muloqot, ijtimoiy tarmoqlar va ko'p madaniyatli suhbatlarning o'ziga xos ko'p qirrali tomonlarini ham o'rganmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, lingvopragmatika tilning faqat grammatik qoidalarini emas, balki uning amaliy, madaniy va kontekstual tomonlarini ham o'rganib, tilni o'rganish va tushunishning ko'plab yo'llarini ochib beradi. Bu sohaga qiziqish tilni o'rganuvchilar, tarjimonlar va til bo'yicha tadqiqotchilar uchun katta ahamiyatga ega, chunki u tilning haqiqiy muloqotdagi rolini yoritib beradi. Lingvopragmatika fani bugungi kunda turli madaniyatlararo muloqotni, nutq madaniyatini va tilning ijtimoiy, psixologik omillarga bog'liq xususiyatlarini tahlil qilishga katta yordam bermoqda. Bu esa, ayniqsa, tillararo tarjima, biznes muloqoti, xalqaro munosabatlar va boshqa sohalarda ko'p ishlatilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005).
2. F. Абдурахмонов, А. Сулаймонов, X. Холнёров, Ж.Омонтурдиев. Хозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент, "Укитувчи" 1979, -2086.
3. Хакимов, Муҳаммад. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. Тошкент: Академнашр, 2013.-176 б.
4. Норман, Б. Ю. (2009). Лингвистическая прагматика (на материале русского и других славянских языков): курс лекций/БЮ Норман.